

Hushyorlikka chorlov

2019 yil 2 fevral kuni "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrası professor o'qituvchilari dots. S.A.Kasimbetova, ass. G.T.Axmedjonova, ass. D.G.Yulchiyev, ass. A.Dolidudko, stajyor o'qituvchi E. Malikovlar tomonidan 3 - TTJda "Ogohlik - davr talabi" mavzusiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Tadbirda talaba yoshlarga bugungi kunda dunyoning turli mintaqa va hududlarida avj olayotgan qarama-qarshiliklar, musulmon dunyosidagi turli diniy oqimlar o'rtasida kuchayib borayotgan nizo va ziddiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar taqdimot orqali tushuntirib berildi.

Shu bilan bir qatorda talabalarga tinch va osuda hayotimizni, tinchlikni asrash har bir insonning burchi ekanligi va doimo ogoh bo'lishimiz zarurligi tushuntirib o'tildi.

Tadbir juda qiziqarli va savol javoblarga boy tarzda o'tdi.



"Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrası assistenti D. Yulchiyev axboroti
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov